



FONOLOGIK OPPOZITSIYALAR

Andijon davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi Ergasheva Mehrixon Rahmatulla qizi va Abdujalilova Muxtasar Yoqubjon qizi va f.f.b.f.d., dotsenti Usmonov Farhodbek Faxriddinovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada fonologik oppozitsiyalar tushunchasi, ularning turlari va fonologik tizimdagи о'rni tahlil qilinadi. Fonologik oppozitsiya deganda, til tizimida ma'noni farqlovchi fonemalarning qarama-qarshiligi tushuniladi. Maqolada N.S. Trubetskoy va boshqa fonologlarning nazariy qarashlari asosida oppozitsiyalar paradigmasi yoritiladi. Shuningdek, turkiy tillarda fonologik oppozitsiyalarning o'ziga xos jihatlari misollar bilan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: fonologiya, fonema, oppozitsiya, neytralizatsiya, distinktiv belgi, fonologik tizim, paradigmatic munosabatlar.

Annotation: This article analyzes the concept of phonological oppositions, their types, and their role in the phonological system. A phonological opposition refers to the contrast between phonemes that serve to distinguish meaning within a language system. The article discusses the paradigm of oppositions based on the theoretical views of N.S. Trubetzkoy and other phonologists. It also explores the specific features of phonological oppositions in Turkic languages with relevant examples.

Keywords: phonology, phoneme, opposition, neutralization, distinctive feature, phonological system, paradigmatic relations.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие фонологических оппозиций, их виды и роль в фонологической системе. Под фонологической оппозицией понимается противопоставление фонем, различающее значение в языковой системе. В статье освещается парадигма оппозиций на основе теоретических взглядов Н.С. Трубецкого и других фонологов. Также анализируются особенности фонологических оппозиций в тюркских языках с приведением примеров.



Ключевые слова: фонология, фонема, оппозиция, нейтрализация, дистинктивный признак, фонологическая система, парадигматические отношения.

Fonologik oppozitsiya ikki fonemaning bitta farqlanish belgisi asosida o‘zaro zidlanish hosil qilishidir. Masalan, “p”(jarangsiz) va “b” (jarangli) undoshlari jarangsiz-jarangli belgisi asosida bir oppozitsiyaga birlashadi. Bu ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi: p (lab-lab) – b (lab-lab), p (portlovchi) – b (portlovchi) kabi. Demak, undosh fonemalarga xos bo‘lgan uchta fonologik belgilar – artikulatsiya o‘rni, artikulatsiya usuli va jarangsizlik-jaranglilik belgilardan faqat bittasi (so‘nggisi) p-b oppozitsiyasiga asos bo‘lgan. Shuning uchun u "birlik oppozitsiya" sanaladi. Ikki va uch tomonlama farqlanuvchi tovushlar ham mavjud. Masalan, f va t undoshlari artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya usuliga ko‘ra farqlanadi ya’ni, “f” lab-tish “t” til oldi va “f” sirg’aluvchi “t” portlovchi tovushlar hisoblanadi. Jarangli- jarangsizligiga ko‘ra esa ikkalasi ham bir turga mansub ya’ni, ikkalasi ham jarangsiz tovushlardir. Uch tomonlama farqlanuvchi tovushlarga misol qilib “g” va “x” tovushlarini keltirishmiz mumkin. Fonologik tizim va fonemalarning paradigmatik munosabatlari Sh. Rahmatullayev tomonidan yoritilgan.¹

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, fonologik oppozitsiya turli til tovushlarini qarama-qarshi qo‘yishga asoslanmaydi, chunki u muayyan bir tilning struktural birligidir va shu tilning o‘zigagina xizmat qiladi. Qolaversa, fonologik oppozitsiyalar hozirgi tilning strukturaviy birliklari sanaladi, ular tarixan o‘zgarib turishi ham mumkin. Masalan, qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda unli fonemalar tilning yotiq gorizontal harakatiga ko‘ra old qator va orqa qator zidlanishlariga ega bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bunday zidlanish o‘zining fonologik xususiyatini yo‘qotgan. Demak, fonologik oppozitsiyalar til taraqqiyotining muayyan bosqichiga nisbatan belgilanadi, ayni shu bosqichda bir fonema boshqa fonemaga bir xil pozitsiyada qarama-qarshi qo‘yiladi: hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi „i va u unlilari so‘z boshida (ich va uch) yoki bir xil fonetik qurshovda (bir va bur, qish va qush) bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgani kabi. Demak, “oppozitsiya” tushunchasi "fonema" va

¹ Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 1995.



„pozitsiya“ tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir: fonemaning bo‘lishi oppozitsiyaning bo‘lishini, oppozitsiyaning bo‘lishi esa pozitsiyaning bo‘lishini taqozo qiladi”. O‘zbek tilidagi fonologik tizim va oppozitsiyalar haqida R.R. Sayfullayeva asarida ma'lumotlar mavjud.²

Fonologik oppozitsiyalar dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlariga tayangan holda shakllanadi, ularning strukturaviy birlik sifatidagi mohiyati ham shu qonunlarga asoslanadi. Har bir fonema fonologik birlik yoki element deyiladi. Har bir til o‘zining fonologik sistemasiga ega bo‘lib, undagi har bir fonemaning o‘z o‘rni va funksiyasi bor. Bir tildagi fonema ikkinchi tilda bo‘lishi mumkin emas. Har bir fonema fonologik oppozitsiyaning a’zosi hisoblanadi. Fonologik oppozitsiyalar tilning fonemik strukturasini tushunishga yordam beradi va tilni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida so‘zlar va ularning ma’nolari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash mumkin.

Fonologik oppozitsiyalar nazariyasi N.S. Trubetskoy tomonidan asoslab berilgan.³ Trubetskoy, rus fonologiyasining asoschilaridan biri sifatida tanilgan va uning ishlariga asoslanib, fonologik oppozitsiyalar nazariyasi rivojlangan. N. S. Trubetskoy birinchi bo‘lib rus tilida undoshlarning tembr belgisi (artikulyatsiya o‘rni) bo‘yicha «kombinator neytralizatsiyasini chuqur va to’la yoritib bergen edi. Lekin bu xildagi neytralizatsiyani boshqa tilshunoslar tadqiqotdan chetda qoldirib keldilar. Fanning turli sohalarida ko’rinish pog’onasi (yoki aniq, konkret) va mavhum (abstrakt) pog’ona farqlanadi. Tilning ifoda jihatida aniq pog’onaga fonetika, mavhum pog’onaga fonologiya kiradi. Bu ikki pog’onada aniq talaffuz qilinuvchi nutq tovushlari fonetik birliklar va fonema mavhum fonologik birlik sifatida qaraladi. Shu sababli fonologiya nutq tovushlarining ramziy belgilar munosabati (oppozitsiya) bilan bog’liqligi haqidagi tilshunoslik bo‘limi deb hisoblanadi. Biror tilning fonologik sistemasini ilmiy tadqiq etishda undagi oppozitsiyalarni turli ortiq kategoriylar (korrelyatsiya) va guruhlarga (oppozitsiyalarning turlari) ajratib, ulardagи neytralizatsiya masalalariga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Lekin fonologiya qanchalik

² Sayfullayeva, R.R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: fonetika-fonologiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.

³ Trubetskoy, N.S. Osnovy fonologii. Moskva: Nauka, 1960.



mavhum bosqich bo'lmasin, undagi o'rganilayotgan mavzuning «aksi» fonetikaga, tilning ma'lum davrdagi talaffuz normasiga tushib turadi. Bu orqali fonologiya faqat talaffuz emas, balki orfografiya va grafika bilan ham bog`lanadi. Trubetskoy fonemalarni tilning eng kichik ma'noli birliklari sifatida ko'radi. U fonemalar o'rtasidagi oppozitsiyalarni tahlil qilib, ularning qanday qilib ma'no yaratishini tushuntiradi. U o'zaro oppozitsiyalarni ikki turga bo'ladi: "absolyut" va "relativ" oppozitsiyalar. Absolyut oppozitsiyalar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fonemalar o'rtasida mavjud bo'lib, ular ma'no farqini yaratadi.

Fonologik oppozitsiyalar tasnifida tovushlarning artikulyatsion-akustik xususiyatlari qanchalik aniq berilganligini nazardan chetda qoldirish xatoliklarni keltirib chiqaradi. O'zbek tili undosh tovushlarning tasnifi turli tilshunoslar tomonidan deyarli ancha to'g'ri berilgan. Lekin keyingi yillarda o'tkazilgan eksperimental-fonetik tadqiqotda ba'zi masalalar xato va chalkashliklardan xoli emas. O'zbek adabiy tili undosh fonemalarining A. Maxmudov tomonidan berilgan tasnifida ular artikulyatsiya o'rniga ko'ra lab, alveolyar, til o'rta, til orqa, faringal atalgan. Bunda agar til o'rta va til orqa undoshlari bo'lsa, til oldi undoshlari chetda artikulyatsiya o'rniga ko'ra, avvalo, lab va til (lingval) undoshlari farqlanadi. Lab undoshlari o'z navbatida hosil bolish o'rniga ko'ra deb ham yuritiladi. Bu klassifikatsiyaga boshqa tillardan yana qo'shimchalar kiritilgan. Lekin o'zbek tili uchun yuqoridagilar kifoya. A. Maxmudov til oldi undoshlari atamasini qo'llamaydi va t, d, s, z, sh, ch, j, n, l, r undoshlarini «alveolyar» deb korsatadi. Bizningcha, til oldi alveolyar (yoki apikal) o'zbek tilida barcha undoshlar uchun xos emas.

Ayrim fonologik kontekstlarda oppozitsiyalar o'z kuchini yo'qotishi mumkin, bu hodisa neytralizatsiya deb ataladi. Fonologik oppozitsiyalar va neytralizatsiya hodisasi haqida chuqur tahlillar mavjud.⁴ Masalan, rus tilidagi so'z oxirida [b] va [p] tovushlari bir xil — [p] tarzida talaffuz qilinadi: grob [grop]. Bu jarayon, odatda, tilning fonologik tizimidagi murakkabliklarni soddalashtirishga yordam beradi va ayrim fonemalarning o'zaro aloqasini o'zgartiradi. O'zbek tilida "p" va "b" fonemalari

⁴ Jakobson, R. Selected Phonological Studies. The Hague: Mouton, 1971.



o'rtasidagi farq ba'zi hollarda neytralizatsiyaga uchraydi. Masalan, so'z oxirida "p" va "b" fonemalari bir xil talaffuz qilinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fonologik oppozitsiyalar nazariyasi tilshunoslik sohasida Trubetskoyning merosi sifatida qabul qilinadi va uning g'oyalari hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu nazariya orqali tilning murakkab strukturasini va uning ma'no yaratish jarayonini yaxshiroq tushunish mumkin. Fonologik oppozitsiyalar, tilning asosiy mexanizmlarini o'rganishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi va bu sohadagi tadqiqotlar davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Sayfullayeva, R.R. Hozirgi o'zbek adabiy tili: fonetika-fonologiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Trubetskoy, N.S. Osnovy fonologii. Moskva: Nauka, 1960
4. Jakobson, R. Selected Phonological Studies. The Hague: Mouton, 1971.
5. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing, 2008.